

O'ZBEKISTON VA GRUZIYA DAVLATI KONSTITUTSIYALARINING TAHLILI

Muminova Nazokat

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti 1-kurs talabasi.

Annotatsiya: Ushbu ilmiy maqolada O'zbekiston va Gruziya davlatlari Konstitutsiyasining o'xshash va farqli tomonlari yoritib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Parlament, hukumat, davlat, poytaxt, davlat tili, qonun, fuqaro, huquq.

Gruziya parlamenti tomonidan qabul qilingan konstitutsiya 1995 yil 24-avgustda ishlab chiqildi va 1995 yil 17-oktyabrda kuchga kirgan. 2013 yil Giorgi Margvelashvili prezidentlik saylovlarida g'olib bo'lgach yangi konstitutsiya ishlab chiqildi va 2013 yil 17-noyabrdan kuchga kirdi. Amalda 2018-yil 23-martda tahrirlangan konstitutsiyasi qo'llaniladi. 11-bo'lim, 78-moddadan iborat.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi 1992-yil 8-dekabrdan O'zbekiston Oliy Kengashining 12-chaqiriq 11-sessiyasida qabul qilingan. Yanga tahrirdagi amaldagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 2023-yil 30-aprel kuni o'tkazilgan O'zbekiston Respublikasi referendumida umumxalq ovoz berish orqali qabul qilingan. 6-bo'lim, 27-bob, 155-moddadan iborat.

Gruziya. Yangi qonunchilikka binoan to'g'ridan-to'g'ri prezident saylovları bekor qilinadi va mamlakat 2024-yilda to'liq mutanosib parlament vakilligiga o'tishi belgilab qo'yildi.

O'zbekistonda esa prezident xalq ovozi orqali to'g'ridan-to'g'ri saylanadi.

Gruziya. 1-bo'limi Umumiyo qoidalar deb ataladi. 1-moddasida Davlat suvereniteti haqida yozilgan, unga ko'ra Gruziya- demokratiyaga asoslangan, yagona va bo'linmas davlatdir. Bu butun hududi bo'yicha 1991-yil 31-martda o'tkazilgan referendumga ko'ra, shuningdek, Abxaziya ASSR va Janubiy Osetiya, 1991-yil 9-apreldagi Gruziya davlatining mustaqillagini tiklash to'g'risidagi aktiga asoslangan.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 1-bobi Davlat suvereniteti deb nomlanadi, 1-moddasida O'zbekiston- boshqaruvning respublika shakliga ega bo'lgan suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat deb yozilgan. 3-moddasida esa O'zbekistonning davlat chegarasi va hududi daxlsiz va bo'linmasdir deb yozilgan.

Gruziya. 2-modsasida Davlat ramzlari, davlat tili va poytaxti Tbilisi ekanligi haqida yozilgan, Gruziyada davlat tili-gruzinchay hisoblanadi, o'z navbatida, Abxaziya Avtonom Respublikasida-abxazcha hisoblanadi. Davlat tili qonun tomonidan himoya qilinadi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 5-moddasida davlat ramzlari, 6-moddasida poytaxti Toshkent shahri ekanligi haqida, 4-moddasida esa Davlat tili-o'zbek tili ekanligi yozilgan.

Gruziya. 3-moddasida demokratiya haqida yozilgan, unga ko'ra davlatning manbai xalq deyilgan.

O'zbekiston. 7-moddasida xalq davlat hokimiyatining birdan-bir manbaidir deyilgan.

Gruziya Konstitutsiyasining 2-bo'limi Insonlarning asosiy huquqlari deb nomlanadi. 9-moddasida inson qadr-qimmati daxlsizdir va u davlat tomonidan himoya qilinadi. Insonni qiyash, uning qadr-qimmatini kamsituvchi, haqorat qiluvchi muomala qilish taqiqlanadi deb e'turof etilgan.

10-moddasida esa yashash huquqi va jismoniy yaxlitlik haqida so'z borgan, unga ko'ra inson hayoti qo'riqlanadi, o'lim jazosi taqiqlanadi deyilgan. Shuningdek, insonning jismoniy yaxlitligi muhofaza qilinadi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 2-bo'limi inson va fuqaroning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlari deb nomlanadi. 26-moddasida insonning sha'ni va qadr-qimmati daxlsizdir. Hech narsa ularni kamsitish uchun asos bo'lishi mumkin emas deb ta'kidlab o'tilgan.

25-moddasida yashash huquqi har bir insonning ajralmas huquqidir va u qonun bilan muhofaza qilinadi. Inson hayotiga suiqasd qilish eng og'ir hinoyatdir. O'zbekiston Respublikasida o'lim jazosi taqiqlanadi deb aytib o'tilgan.

Gruziya. 28-moddasida sog'likni saqlash huquqi to'g'risida so'z boradi. Fuqarolarning sog'liqni saqlashda mavjud va sifatli xizmatlardan foydalanishi qonun bilan belgilanadi. Davlat tibbiy xizmatlarning sifatini, dori vositalarining ishlab chiqarilishini nazorat qiladi.

O'zbekiston. 48-moddasida har Kim sog'lig'ini saqlash va malakali tibbiy xizmatdan foydalanish huquqiga ega. Davlat sog'liqni saqlash tizimini, uning davlat va nodavlat shakllarini, tibbiy sug'urtaning har xil turlarini rivojlantirish, aholining sanitariya-epidemiologik osoyishtaligini ta'minlash choralarini ko'radi deb yozilgan.

Gruziya. 3-bo'limi Gruziya Parlamentiga bag'ishlangan. 36-moddasida Gruziya Parlamenti oliy vakillik organi bo'lib, qonun chiqaruvchi vakolatga ega, davlatning ichki va tashqi yo'nalishlarini belgilaydi deb e'tirof etilgan.

46-moddasida Gruziya Parlamenti tomonidan qonun qabul qilinib, Prezidentga yuborilishi va u qonunni qabul qilgandan so'ng ommaviy axborot vositalarida e'lon qilinishi to'g'risida so'z boradi.

O'zbekiston. 5-bo'lim, 18-bob O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi haqida. 91-moddasida O'zbekiston Respublikasining Oliy Majlisi oliy davlat vakillik organi bo'lib, qonun chiqaruvchi hokimiyatni amalga oshiradi deb yozilgan.

99-moddasida qonun Qonunchilik palatasi tomonidan qabul qilinib, Senat tomonidan ma'qullanib, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan imzolangach va qonunda belgilangan tartibda rasmiy manbalarda e'lon qilingach, yuridik kuchga ega bo'lishi to'g'risida aytilgan.

Gruziya. 4-bo'limi Prezidentiga bag'ishlangan. 51-moddadida Prezident qasamyodi haqida yozilgan.

5-bo'lim Gruziya hukumatiga, 6-bo'lim Sud hokimiyati va prokuraturaga, 7-bo'lim Davlat moliyasi, 8-bo'lim Mudofaa va xavfsizlik xizmati, 9-bo'lim Joylardagi hokimiyat organlari, 10-bo'lim Konstitutsiyani qayta ko'rib chiqish va 11-bo'lim o'tish holati haqida yozilgan.

O'zbekiston. 19-bobi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti deb nomlanadi. 108-moddasiga ko'ra Prezident qasamyodni qabul qilgan patdan boshlab, o'z vazifasiga kirishgan hisoblanadi.

20-bob O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, 23-bob Sud hokimiyati, 25-bob Prokuratura, 26-bob Moliya, pul va bank tizimi, 27-bob Mudofaa va xavfsizlik, 21-bob Mahalliy davlat hokimiyati asoslari, 6-bo'lim Konstitutsiyani o'zgartirish tartibi haqida yozilgan.

Bir so'z bilan aytganda, O'zbekiston va Gruziya bir yilda mustaqillikka erishgan va hozirgi kunda Prezidentlik respublikasi, Konstitutsiyasi ham bir biriga ancha o'xshash hisoblanadi, ammo Gruziya 2024-yildan boshlab, o'z davlatini Parlamentar respublikaga aylantirmoqchi shuning uchun ham keyinchalik O'zbekiston va Gruziya qonunchiligi o'rtasida ancha xilma-xilliklar yuzaga kelishi mumkin. Gruziyaning hozirgi konstitutsiyasining 11-bo'limi O'tish holati deb nomlanadi, unga ko'ra uning konstitutsiyasi Yevropa Ittifoqining va Shimoliy Atlanta organlarining ustavlariga mos bo'lishi kerakligi yozilgan. Ammo O'zbekistonda bunday qoida mavjud emas.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi;
2. <https://st.deepphotught.industries/vuA32i>;
3. <https://matsne.gov.ge/ru/document/view/30346?publication=36> .